Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamiy Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjie	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукажоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостепримства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashirishning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
Bukhara State Technical University	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish	2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo'yiladigan chora tadbirlar.....	2184
Shakarov Qulmat Ashirovich	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'llari.....	2189
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi	
Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta'siri.....	2195
Valiyeva Oydin Orifjonova	
Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o'rgatish tajribalari.....	2201
Salomova Malika Zoxirovna	
Til o'rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari.....	2206
Kazakova Dilor Gaffarovna	
Adabiy matnlar orqali til o'rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini	2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna	
Iste'molchilar motivatsiyasida afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish	2214
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali budjet samaradorligini oshirish yo'llari.....	2220
Turganbaev Nursultan Bayram uli	
Hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyasi	2224
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna	
Adapting Global Project Management Frameworks for Innovation in Transitional Economies: A Case Study of Uzbekistan's Textile Industry.....	2229
Qingming Dong	
Тенденции развития финансового рынка в узбекистане.....	2234
Мадреимов Айтбай Оразбаевич, Мамутов Кутлымурат Зафар улы	
Экономическая сущность монетарной политики	2239
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Mintaqada turizm sanoatini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	2247
Salayeva Dilrabo Abdullayevna	
Тенденции и перспективы развития международного туризма в узбекистане.....	2251
Мамаризоев Жахонгир Исохонович, Тураева Сурия Тельмановна	
LMA va LSTA tajribasi asosida o'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirish yo'llari	2256
G'ofurov Javohir Jahongir o'g'li	
Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish.....	2261
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li, Rasulov Ulug'bek Obidjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotni barqaror o'sish sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash masalalari.....	2266
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Приоритетные направления дальнейшего развития экономики путем совершенствования операций с ценными бумагами акционерных обществ	2271
Ботиров Азамат Ахмедович, Маликова Угиллой Абдурасуловна	
Barqaror iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy inkluzivlikning rolini kuchaytirish; resurslar taqsimotining tizimli yondashuvi	2276
Xomidova Kamola G'olib qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	2280
Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich	
Xorijiy mamlakatlarda bank-moliya sohasi rivojlanishida sun'iy intellekt va yuqori texnologiyalarning ta'siri.....	2286
Musagaliyev Ajiniyaz Jumagulovich	
MS Excel dasturidagi son ko'rinishida bo'lgan pul miqdorini o'zbek tilidagi so'zlar bilan ifodalash.....	2291
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna	



Joydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	2299
Javliyeva Gulasal Bahridin qizi	
Yashil logistika konsepsiyasining barqaror rivojlanishda tutgan o'rni.....	2305
Boltayeva Shaxnoz Bebudovna, Muxamedova Sevara Azamatovna	
Turizm biznesi tushunchasi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati	2312
Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna	
O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida mintaqalar iqtisodiyotining ahamiyati va rivojlanish jarayonlarining empirik tahlillari	2314
Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash	2320
Jubanova Bayramgul, Xojamuratova Guljaxan Nishanbay qizi	
Islom iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari	2326
Muyassar Ziyaviddinovna Muxitdinova, Dilshod Sagdullayevich Muxitdinov	
Global va milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash metodologiyasi va uning nazariy asoslari.....	2332
Ashurov Jaloliddin Eshpulatovich	
Xorazmda etno-folklor turizmini rivojlantirish: madaniy meros va barqaror taraqqiyot istiqbollari	2338
Ollanazarov Bekturod Davlatmuratovich, Raimova Nilufar Abdullayevna	



XORAZMDA ETNO-FOLKLOR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH: MADANIY MEROS VA BARQAROR TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti "Turizm" kafedrası dotsenti, PhD

b.d.ollanazarov@gmail.com

bekmurod.o@urdu.uz

ORCID: 0000-0003-3104-2142

Raimova Nilufar Abdullayevna

Urganch Ranch texnologiyalar universiteti

"O'zbek va xorijiy tillar" kafedrası v.b. dotsenti, PhD

n.a.raimova81@gmail.com

ORCID: 0009-0009-2948-2094

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida etno-folklor turizmini rivojlantirish imkoniyatlari O'zbekiston turizm sohasini diversifikatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida har tomonlama tahlil qilingan. Mazkur hududning noyob nomoddiy madaniy meros elementlarini - jumladan, bugungi kungacha saqlanib kelayotgan xalq an'anaviy milliy raqslari (ayniqsa, "Lazgi"), baxshilarning she'riy-musiqaviy an'analari, hunarmandchilik va mehmondorchilik madaniyatini raqobatbardosh turmahsulot yaratishning manbai sifatida ochib beradi. Madaniy merosni zamonaviy turizm formatlariga - festivallar, gastronomik turlar, mahorat darslari, folklor shoular, ekspeditsion turlar va mahalliy oilada yashash (homestay) dasturlariga integratsiya qilish bo'yicha aniq misollar keltirilgan. Yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va mahalliy o'zligini asrab-avaylash nuqtai nazaridan etnoturizmning hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Etnoturizm, etno-folklor turizmi, folklor, madaniy meros, turmahsulot, lazgi, baxshichilik san'ati, nomoddiy meros, hunarmandchilik, gastronomik turizm, barqaror rivojlanish.

Abstract: Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the development opportunities of ethno-folklore tourism in the Khorezm region as one of the strategic areas for diversifying the tourism industry of Uzbekistan. Unique elements of the intangible cultural heritage of this region - including traditional national folk dances (especially "Lazgi") that have survived to this day, poetic and musical traditions of bakhshi, handicrafts and the culture of hospitality are revealed as a source of creating a competitive tourist experience. Specific examples of integrating cultural heritage into modern tourism formats are given - festivals, gastronomic tours, master classes, folklore shows, expedition tours and homestay programs. Particular emphasis is placed on the importance of ethnotourism in the socio-economic development of the region in terms of creating new jobs, supporting small businesses and preserving local identity.

Key words: Ethnotourism, ethno-folklore tourism, folklore, cultural heritage, tourism product, Lazgi, bakhshi art, intangible heritage, handicrafts, gastronomic tourism, sustainable development.

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализированы возможности развития этно-фольклорного туризма в Хорезмской области как одного из стратегических направлений диверсификации туристической отрасли Узбекистана. Уникальные элементы нематериального культурного наследия этого региона - в том числе сохранившиеся до наших дней народные традиционные национальные танцы (особенно "Лазги"), поэтико-музыкальные традиции бахши, ремесленничество и культура гостеприимства раскрыты как источник создания конкурентоспособного. Приведены конкретные примеры интеграции культурного наследия в современные туристические форматы - фестивали, гастрономические туры, мастер-классы, фольклорные шоу, экспедиционные туры и программы проживания в местной семье (homestay). Особо подчеркивается значение этнотуризма в социально-экономическом развитии региона с точки зрения создания новых рабочих мест, поддержки малого бизнеса и сохранения местной идентичности.

Ключевые слова: Этнотуризм, этно-фольклорный туризм, фольклор, культурное наследие, турпродукт, лазги, искусство бахши, нематериальное наследие, ремесленничество, гастрономический туризм, устойчивое развитие.



KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi fonida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va madaniy merosga bo'lgan qiziqish keskin ortib bormoqda. Bu holat nafaqat o'z millatining etnik-madaniy xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojda, balki boshqa xalqlarning hayoti, tarixi va an'analari qiziqishda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan qaralganda, bugungi kunda turizm sohasi ushbu ehtiyojni qondirishda muhim vositaga aylanib, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Turizm, xususan, etnografik madaniyat va folklor bilan tanishishning samarali yo'llaridan biri sifatida qadrlanmoqda. Madaniy yodgorliklar va tarixiy obidalarini ziyorat qilish, etnik festivallar va bayramlarda ishtirok etish orqali sayyohlar turli xalqlarning madaniyati, an'analari va turmush tarziga chuqurroq kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, bu jarayonda ular turli xalqona urf-odatlar va qadriyatlarni bevosita o'z tajribasida his etadilar. Turistlarning dunyoning turli hududlarida yashovchi xalqlar madaniyatiga qaratilgan kuchli qiziquvchanligi zamonaviy turizmning asosiy motivlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad – turli etnik guruhlarining madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlariga nisbatan ortib borayotgan ijtimoiy qiziqishni o'rganishdan iborat. Xususan, rekreatsion ehtiyojlarni xalqlarning tarixiy-madaniy merosini o'rganish istagi bilan uyg'unlashtirish orqali gastronomik, etnik, ijtimoiy-madaniy, kognitiv, ko'ngilochar va folklor komponentlarini mujassam etgan turmahsulotlar yaratish dolzarb hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, turizmga yangicha yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mamlakat, mintaqa yoki mahalliy hududlarning madaniy merosi va urf-odatlariga chuqur kirib borish imkonini beruvchi etno-folklor turizmi bugungi kunda turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlariga mansub sayyohlarni jalb etish imkoniyatiga ega. Bunday turizm nafaqat chet ellik mehmonlar, balki o'z ajdodlari merosiga qiziqqan mahalliy yoshlarda ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Ayniqsa, ildizlarni, urf-odatlar va marosimlarni qayta kashf etishga intilayotgan yoshi katta avlod vakillari uchun ham bu turizm turi muhim ahamiyat kasb etadi.

Etno-folklor turizmi doirasida etnik turizm, etno-ekologik turizm, ijtimoiy-madaniy turizm, nostalgiya (sog'inish) turizmi, mahalliy turizm, etno-madaniy va etnografik-folklor turizmi kabi turli yo'nalishlar mavjud. Mintaqalarda amalga oshirilayotgan etnografik tadqiqotlar orqali hududlarning folklor an'analari va etno-madaniy resurslari asosida yangi turistik mahsulotlar yaratish imkoniyati kengayib bormoqda. Shu sababli maqolada "etnografik-folklor tur" atamasi ostida "etnografik", "etnik" va "etnografik-folklor" tushunchalari teng darajada ahamiyatli deb qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Rus olimi V.M. Jirmunskiy [1] tomonidan G'arb va Sharq mamlakatlari qahramonlik eposlarini qiyosiy-tarixiy o'rganishda "etnografiya" va "folklor" tushunchalariga berilgan ta'riflar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-sonli Qonunida keltirilgan yondashuvlar asosida "etnografik-folklor turizmi" tushunchasining quyidagi ta'rifi shakllantiriladi:

Etnografik-folklor turizmi – bu, muayyan bir xalqning madaniyati, turmush tarzi, gastronomik afzalliklari, tili, an'analari, urf-odatlar, kiyim-kechaklari, etnik ijodiyoti va folklori bilan tanishtirish maqsadida kishilarning doimiy yashash joyidan boshqa mamlakatlar yoki mintaqalarga madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar maqsadlarda amalga oshiradigan sayohatlari bo'lib, u keng doiradagi turistlar uchun mo'ljallangan turmahsulot sifatida e'tirof etiladi.

Mintaqalarda etnografik-folklor turizmining hozirgi holati, roli va rivojlanish istiqbollari bir qator olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Jumladan, A.G. Butuzov [3], L.P. Voronkova [4], E.N. Trofimov [5], R.Yu. Stitsyuk [6], V.P. Chibilyova va I.Yu. Filimonova [7] kabi rus olimlari, shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar X.F. Ochilova [8], O.Z. Kilichova va Sh.B. G'afarov [9] tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shular jumlasidandir.

Xorijlik olimlardan M. Smith, G. Richards [10] va S. Bolnick [11] tomonidan etno-madaniy turizm xalqaro miqyosda mamlakat imijini shakllantirish vositasi sifatida tahlil etilgan. Shuningdek, ayrim xorijiy olimlar etnik turizmning alohida yo'nalishi sifatida genealogik turizmni ham o'rganmoqdalar. Shu bilan birga, xorijiy davlatlarda mavjud etnoturizm resurslari va ularning rivojlanish istiqbollari bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kanadalik olim C. Notzke [12] esa o'z ilmiy faoliyatini turizm industriyasini shakllantirish va rivojlantirishda mahalliy xalqlarni turizm jarayonlariga faol jalb etish usullarini tadqiq qilishga bag'ishlaganligi bilan ajralib turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi natijalari mintaqaning turistik-iqtisodiy amaliyotida qo'llashga yo'naltirilgan tavsifiy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, keys tahlil, empirik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4428097>



TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari asosida etnoturizmning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan ahamiyatini quyidagi yo'nalishlar orqali izohlash mumkin:

boshqa millat vakillariga nisbatan bag'rikenglikni rivojlantirish;
dunyoning ijtimoiy, tabiiy, ekologik va madaniy xilma-xilligini saqlab qolishga hissa qo'shish;
muayyan xalqlar yashaydigan hududlarning o'ziga xosligi va madaniyatini asrab-avaylashga ko'maklashish;
mahalliy aholining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratish, ularning madaniy saviyasini oshirish;
mahalliy aholining boshqa xalqlar vakillari bilan madaniy aloqalar o'rnatishi, an'ana va urf-odatlar bilan o'zaro tajriba almashishga imkon yaratish;
teatr, muzey va boshqa madaniy obyektlarga moliyaviy ko'mak ko'rsatish;
etnik taomlar va mahalliy hunarmandchilikni saqlab qolishga yordam berish;
mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish;
mintaqa iqtisodiyoti rivojiga turtki berish;
hududning turistik jozibadorligini oshirish va hokazo.

Ko'p millatli O'zbekiston Respublikasi o'zining go'zal tabiiy resurslari, xalqlarning boy va betakror madaniyati hamda xalqning mehmondo'stligi bilan boshqa davlatlar orasida ajralib turadi. Bu esa mamlakatimizda etnoturizmni mintaqaviy, milliy va xalqaro miqyosda rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini anglatadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 30 dan ortiq turli elatlar va etnografik guruhlar yashaydi [13]. Ammo ularning madaniyati, turmush tarzi, an'analari va tillari hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, bu holat etnoturistik mahsulotlar yaratishda noyob material sifatida katta ahamiyatga ega.

Etnografik turizm (etnoturizm) bugungi kunda sayohatni etnik xalqlar madaniyatiga "sho'ng'ish" bilan uyg'unlashtirgan istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon miqyosida turizm va madaniy merosning sinergetik samarasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, madaniy turizm xalqlar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. O'zbekistonda etnoturizm bir tomondan dam olishning yangi jozibador shakli sifatida, boshqa tomondan esa tarixiy-madaniy merosni asrash, infratuzilmani rivojlantirish va yangi turmahsulotlarni targ'ib qilish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi soha sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni, etnoturizm bir vaqtning o'zida ham gumanitar, ham iqtisodiy maqsadlarda muhim vosita hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, etnik turizm an'anaviy hududlar rivojining strategik yo'nalishiga aylanishi mumkin. U madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi va mahalliy hamjamiyatlar barqaror rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

O'zbekiston hukumati turistik xizmatlar sohasida milliy madaniyatni integratsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan qarorida [14] turizm sohasi yangi ish o'rinlari yaratishning drayveri sifatida ko'rilib, xizmatlar hajmini 5 barobarga oshirish rejalashtirilgan. Bu maqsadda infratuzilma keskin takomillashtirilmoqda: yangi oilaviy mehmon uylari, "turizm ko'chalari" (hunarmandchilik do'konlari, ovqatlanish maskanlari, xizmat ko'rsatish zonlari) tashkil etilmoqda. Bunday yondashuv madaniy merosni turmahsulotning jonli komponentiga aylantirish, uning saqlanishini ta'minlash va ommalashtirishga xizmat qiladi.

Xorazm viloyati o'zining qadimiy an'alarini saqlab qolgan hududlardan biri bo'lib, uning boy etno-folklor resurslari turizm bilan integratsiya qilinishi mumkin bo'lgan quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Xorazm o'zining baxshi-shoirlari va xalfalari bilan mashhur. Baxshilar jonli xalq tilining bilimdonlari sifatida, o'zlarining yuksak xotirasi va xonandalik mahorati bilan epik an'analarni asrlar davomida avloddan avlodga yetkazib kelmoqdalar [15]. Dostonchilik an'anasi bo'yicha baxshilar asosan ikki torli dutor, hozir esa bulomon va doirachilar ansambli jo'rligida ijro etadilar. Ularning repertuari xalq rivoyatlari, sevgi qissalari va mumtoz she'riy asarlarga asoslangan bo'lib, Xorazm ijro maktabi deklamatsiyani cho'ziq epik ohanglar bilan uyg'unlashtiradi. E'tiborli jihati – Xorazmda ayol baxshilar (xalfalar) ham faol bo'lib, ular nozik lirik asarlarni ijro etadilar [16]. Baxshichilik san'ati O'zbekistonning nomoddiy merosi sifatida tan olinib, 2021-yilda YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan [17]. Ustoz baxshilar hozirgi kunda ham turli marosim va bayramlarda jonli ijro bilan ishtirok etib, turistlar uchun doston kechalarini tashkil etish imkonini bermoqda. Xorazm raqslari, ayniqsa, o'ziga xos jo'shqinlik va temperamentli uslubi bilan ajralib turadi. Lazgi raqsi – taxminan 3000 yillik tarixga ega bo'lib, 2019-yilda YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy merosi ro'yxatiga kiritilgan [18]. Har yili Xivada o'tkaziladigan "Lazgi" xalqaro raqs festivali ushbu san'at turi bo'yicha global e'tiborning namunasidir. 2022-yilda birinchi, 2024-yil aprel oyida esa ikkinchi "Lazgi" festivali bo'lib o'tdi. Festival doirasida milliy musiqa asboblari, liboslar ko'rgazmalari, hunarmandchilik mahsulotlari, madaniyatga oid hujjatli filmlar namoyish etildi. Ushbu tadbir xalqaro madaniy hamkorlikni kengaytirish, san'at orqali xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.



Xorazmda “Lazgi”dan tashqari o‘ziga xos folklor raqslari ham mavjud. Masalan, “lagan raqsi” – raqqosa barcha harakatlarni kichik laganda turib, undan chiqmasdan bajaradi. Shuningdek, afsonaviy “singan barmoqlar raqsi” mavjud bo‘lib, u Xiva xonining saroyidagi rivoyat bilan bog‘liq. Bu kabi tarixiy hikoyalar va raqslar turistlar uchun sahnaviy folklor shoulariga aylantirilishi mumkin.

Xorazmda har yili Navro‘z bayrami keng nishonlanadi. Ushbu bayram doirasida musiqa, raqs, xalq o‘yinlari va urf-odatlar sayillari tashkil etiladi. Shuningdek, Xorazm to‘y marosimlari ham o‘ziga xosligi bilan sayyohlar e‘tiborini tortadi. Masalan, xalq o‘yinlari – qo‘chqor va xo‘roz urishtirish, milliy kurashlar xorijlik mehmonlar uchun tomosha sifatida tashkil etilishi mumkin.

Xorazmning hunarmandchilik madaniyati asrlar davomida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda madaniy turizmning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, sayyohlar uchun mahalliy ustalarning ish jarayonini kuzatish va asl suvenirnlarni xarid qilish imkoniyati katta qiziqish uyg‘otadi. Viloyatning tarixiy markazi bo‘lgan Xiva shahrida hunarmandchilik ustaxonalari faoliyat yuritmoqda. Bu yerda boshqa hududlarda uchramaydigan noyob buyumlar, jumladan, Xorazmga xos qo‘g‘irchoqlar mavjud. Ichan qal‘a hududida qadimiy an‘analarga asoslangan qo‘g‘irchoq teatri ishlamoqda. Ushbu san‘at turi o‘z ildizlari bilan o‘tmishga borib taqaladi va bugungi kunda ham faol saqlanib qolgan. Mehmonlar mato va yog‘ochdan yaratilayotgan yorqin qahramonlarning paydo bo‘lish jarayonini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Yana bir diqqatga sazovor atribut – bu an‘anaviy bosh kiyim “chugurma”dir. Qo‘y junidan tayyorlanadigan ushbu bosh kiyim qadimdan xorazmliklar tomonidan kiyilgan. Tashqi ko‘rinishidan qo‘pol va og‘ir tuyulgan bo‘lsa-da, amalda yengil va qulay bo‘lib, yozda issiqdan, qishda esa sovuqdan ishonchli himoya qiladi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, chugurmaning narxi tuya bahosiga teng bo‘lgan va uni faqat boy kishilar sotib olgan. Hozirda esa u an‘anaviy uslubdagi esdalik sifatida turistlarga taklif etilmoqda.

Xorazm yog‘och o‘ymakorligi san‘ati bilan ham mashhur. Xiva bozorlarida mayda shaxmat donalari, nafis qutichalar, hamda qadimiy madrasalarni bezab turgan ulkan o‘yma eshiklar va ustunlar kabi buyumlar keng namoyish etiladi. Mahalliy ustalar o‘z mahoratini sayyohlar ko‘z o‘ngida namoyish etishdan mamnun. Yog‘och o‘ymakorligi Xorazm xalq san‘atining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Hunarmandchilik do‘konlari bo‘ylab ekskursiyalar davomida ustalarning murakkab naqshlar o‘yishini yoki minoralarning tag qismini bezash jarayonini kuzatish mumkin. Bu kabi ochiqlik mehmonlarning madaniyatga bo‘lgan hurmatini oshiradi va ularni qo‘l mehnati mahsulotlarini xarid qilishga undaydi.

Viloyatda keng tarqalgan boshqa hunarmandchilik turlariga kulolchilik, gilamdo‘zlik va tandir yasash san‘atini kiritish mumkin. Qishloqlarda naqshli sopol idishlar, geometrik bezakli gilam va so‘zanalar tayyorlanadi. Tandır esa o‘zbek xalqining kundalik turmushida muhim ahamiyat kasb etuvchi o‘choq bo‘lib, har bir xonadonda deyarli mavjud. Xorazmda tandir yasash an‘anasi keng tarqalgan bo‘lib, sayyohlar yo‘l chetidayoq tandir yasayotgan mohir ustani ko‘rishlari mumkin. Maxsus mahorat darslari – mini tandir, suvenir sopol idish yoki palov uchun mo‘ljallangan “bodiya” yasash – turmahsulotni boyitadi va sayyohlarga bevosita madaniy aloqani taqdim etadi.

Milliy taomlar Xorazm etnografik qiyofasining ajralmas qismini tashkil etadi. Viloyat o‘zining oshxonasi va qishloq xo‘jaligi an‘analari bilan mashhur bo‘lib, bu holat gastronomik turizmni rivojlantirishda alohida mavzu sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xorazm oshxonasi umumiy o‘zbek retseptlari bilan mahalliy taomlarni uyg‘unlashtiradi. Viloyat Amudaryo deltasida joylashgani bois baliq asosiy mahsulotlardan biri sanaladi. Sayyohlarning ta‘kidlashicha, Xorazmda baliq shu qadar mohirona tayyorlanadiki, odatda baliqqa befarq kishilar ham bu taomdan bahramand bo‘ladilar.

Go‘shqli taomlardan kabob va “suyuq osh” mashhur bo‘lsa-da, asosiy milliy taom – palovdir. Xorazmda u o‘ziga xos uslubda tayyorlanadi. Mahalliy “suzma-palov”da sabzi pichoq bilan emas, qo‘llar bilan yirik bo‘laklarga bo‘linadi, bu esa taomga o‘ziga xos tekstura beradi.

Mahalliy taomlar orasida tuxum-barak – ichiga qiyma o‘rniga tuxum solinadigan chuchvaralar ajralib turadi. Tayyorlash jarayoni mohirlik talab qiladi: yupqa xamirga ehtiyotlik bilan xom tuxum solinadi va darhol qaynab turgan suvga tashlanadi, natijada tuxum shaklini saqlab qoladi.

Yana bir noodatiy taom – “ijjon” bo‘lib, bu achchiq qalampir, piyoz va xom go‘shtdan tayyorlanadigan gazakdir. Xorazm oshxonasining haqiqiy tashrif qog‘ozi esa “shivit-osh” hisoblanadi – bu shivit (ukrop) sharbatiga aralashtirilgan yashil ugra bo‘lib, go‘shqli qayla va qatiq bilan birga tortiladi. Rangi va ta‘mi bilan ajralib turadigan ushbu taom ko‘plab mehmonlarni hayratda qoldirib, shivit-osh tayyorlash bo‘yicha mahorat darslarini gastronomik sayohat dasturiga kiritishga sabab bo‘lmoqda.

Xivada har yili o‘tkaziladigan qovun festivali Xorazmning boy agrar merosini namoyish etadi. Festival qadimiy Ichan qal‘a devorlari fonida o‘tkazilib, Xorazm qovunlaridan yasalgan ehromlar, shirin iforli navlar, folklor chiqishlari va konsertlar bilan boyitiladi. Mintaqada yiliga 300 dan ortiq quyoshli kun bo‘lgani sababli bu yerda yetishtiriladigan mevalar, ayniqsa qovunlar, nihoyatda shirador bo‘ladi. Xorazmda 125 dan ortiq qovun navi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati boshqa hududlarda uchramaydi. Shulardan eng mashhuri – “Gurvak” navi bo‘lib, uning sharafiga “Gurvak – Xorazm qovuni ramzi” nomli festival o‘tkaziladi. Unda mehmonlar eng



shirin mevalarni tatib ko'rish, turli musobaqalarda ishtirok etish hamda madaniy dasturlardan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur festival va boshqa shunga o'xshash agro-turistik tadbirlar mahalliy aholi va xorijiy sayyohlar o'rtasida etnoturizmning dolzarbligini oshirib, turmahsulotni gastronomik va ma'rifiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Turistik mahsulotga merosni integratsiyalash: shakllar va misollar. Sanab o'tilgan turistik resurslar asosida etno-folklor muhitiga "sho'ng'ish" imkonini beruvchi turli xil turmahsulotlarni shakllantirish mumkin. Quyida Xorazm viloyatida rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'lgan etnoturlar zamonaviy shakllarda keltirilgan:

Gastronomik turlar. Mahalliy taomlarni tatib ko'rish va pishirish jarayonida ishtirok etish orqali oshxona madaniyati bilan tanishish imkonini beradi. Turistlar oshpazlik bo'yicha mahorat darslarida (masalan, palov yoki shivit-osh tayyorlash) qatnashishi, oilaviy mehmon uylari va choyxonalarga tashrif buyurishi mumkin. Bu yerda ularga tuxum-barak tayyorlash, tandirda non yopish ko'rsatiladi. Shuningdek, ziravorlar, sabzavot va mevalar savdosi bilan shug'ullaniladigan bozorlarga tashrif zarurdir. Bozor narxlar va mahsulotlarning yangiligi Xorazm ta'mini to'liq his qilishga yordam beradi. Sayohat Xiva qovun festivali bilan uyg'unlashtirilsa, gastrotur yana-da mazmunli kechadi. O'zbekiston bo'ylab gastronomik turizmga alohida e'tibor qaratilmoqda: masalan, "Arda Xiva" turistik majmuasiga hududlararo oshpazlar jalb qilinib, zamonaviy food-court'larda milliy taomlarning eng yaxshi namunalari taqdim etish rejalashtirilgan. Bu esa Xorazmni gastronomik markazga aylantirish imkonini beradi.

Festival (event) turlari. Ushbu yo'nalish madaniy tadbirlarga tashrif buyurish asosida shakllanadi. Xorazmda xalqaro miqyosdagi bir qator tadbirlar, jumladan "Lazgi festivali" va "Qovunsayli" o'tkaziladi. Xiva 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilindi. Bunday tadbirlar ko'rgazmalar, shou dasturlari, Navro'z bayrami marosimlari, xalq o'yinlari va konsertlar bilan boyitiladi. Shu bilan birga, ustalar yarmarkasi, xalq musiqasi festivallari yoki tarixiy rekonstruksiya asosidagi bayramlar (masalan, Xorazm qal'alari yoki Buyuk Ipak yo'li mavzusida) tashkil etilishi mumkin. Festival turlari "bayram hissi" yaratib, ayniqsa turistlar oqimi past bo'lgan mavsumlarda tashrifni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "Lazgi" festivali har ikki yilda bir marta doimiy asosda o'tkazilishi belgilangan.

Hunarmandchilik turlari (master-turlar). Ushbu turdagi sayohatlar ta'limiy va madaniy muloqotga asoslanadi. Xivada turistlar qo'g'irchoq ustaxonalari, kulolchilik do'konlari, cho'girma va tandir yasovchi ustalar faoliyati bilan tanishishlari mumkin. Har bir ishtirokchi o'zini shogird sifatida sinab ko'rish uchun imkoniyat yaratiladi. Craf-shopping formati orqali turistlar ishlab chiqaruvchi ustalardan bevosita xarid qilish, mahsulot tarixi bilan tanishish va savdolashish imkoniga ega bo'ladi. Bunday tajriba oddiy do'kondan xarid qilishdan ancha yuqori baholanadi. Yangi hunarmandchilik mahallalarida turistik axborot markazlari (TAM) va boshqa xizmatlar tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. Hunarmandchilik turlari nafaqat daromad manbai, balki yoshlarda hunarga qiziqish uyg'otish va uni davom ettirishga undovchi vosita hisoblanadi.

Folklor shoular va ekspeditsiya turlari. Bu tur kontsert dasturlari va tematik ekskursiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan, Ichan qal'a madrasa fonida kechki yulduzli osmon ostida baxshilar dostonlari, lazgi ansambli raqslari, karnay-doira sadosi ostida folklor shoular tashkil etilishi mumkin. Folklorga qiziqqan kichik guruhlar uchun etnograf gidlar hamrohligida qishloq bo'ylab ekspeditsiyalar uyushtiriladi. Sayohat davomida turistlar mahalliy afsonalar (masalan, Ichan qal'aning yer osti yo'li, Kalta minor haqidagi rivoyatlar) bilan tanishadilar, aholi bilan suhbatda bo'ladi. Bunday ekspeditsiyalar folklorshunoslar, talabalar va tajribali turistlarni jalb etadi. Urganch shahrida "Avesto" va "Lazgi" davlat muzeylari tashkil etilmoqda, bu esa etno-folklor merosni tizimli ravishda targ'ib etishga xizmat qiladi. Shuningdek, ochiq osmon ostidagi etno-bog' tashkil etilishi, mahallalar, ustaxona va xalq tomoshalarini aks ettiruvchi sahnalarni jonlantirish istiqbolli loyihalardan biridir.

Mahalliy oilada yashash (Homestay turlari). Mahalliy aholi uylarida yashash formatidagi sayohatlar (homestay) turistlarga an'anaviy turmush tarzini bevosita his qilish imkonini beradi. Xorazmda bu model tobora kengayib, shaharda ham, qishloqlarda ham oilaviy mehmon uylari shakllantirilmoqda. Turistlar loydan qurilgan, hovlisida supa bo'lgan uyda tunab, uy egasi tayyorlagan nonushtadan bahramand bo'ladi. Milliy kiyimlarni kiyib ko'rish, palov tayyorlashda ishtirok etish, etnik bayramlarni nishonlash madaniy almashinuvga zamin yaratadi. Mehmonnavozlikning yuqori darajasi turistlarda unutilmas taassurot qoldiradi. Bunday tur to'liq sun'iylikdan xoli, tabiiy va samimiy tajriba bilan boyitilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatida etno-folklor turizmini rivojlantirish – mintaqada turizm sohasini diversifikatsiya qilishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu jarayon hududning noyob nomoddiy madaniy merosidan – an'anaviy raqslar, musiqa, xalq amaliy san'ati va Xorazm milliy oshxonasi kabi madaniy boyliklardan samarali foydalanishga asoslanadi. Etno-folklor turizmi zamonaviy turmahsulot shakllariga – festivallar, gastronomik turlar, mahalliy uyda yashash (homestay), folklor namoyishlari va hunarmandchilik ustaxonalari kabi yo'nalishlarga



integratsiyalashgan holda, Xorazmni “jonli madaniyat makoni” sifatida xalqaro miqyosda targ‘ib etish imkonini yaratadi.

Bunday turizm modeli ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy natijalarni ta‘minlaydi. Jumladan, yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, turizm eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, madaniy merosni saqlash va ommalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Etno-folklor turizmini to‘laqonli rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

infratuzilmani modernizatsiya qilish;

mintaqaviy turizm klasterlarini shakllantirish;

Xorazm turistik brendini yaratish va global marketing faoliyatini kengaytirish;

mahalliy aholining turizm faoliyatida ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.

Shu tariqa, etno-folklor turizm nafaqat Xorazm viloyatining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, balki milliy madaniy merosning xalqaro maydonda targ‘ib qilinishiga ham xizmat qiladi. U, ayni paytda, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash va mahalliy o‘zlikni anglash omili sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. В. Жирмунский. Народный героический эпос. Сравнительно-исторические очерки. – М.: Л., Гослит, 1962. https://imwerden.de/pdf/zhirmunsky_narodny_geroichesky_epos_1962__ocr.pdf
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-sonli Qonuni.
3. <https://lex.uz/docs/-4428097>
4. А. Г. Бутузов. Этнокультурный туризм: учебное пособие. – М.: КноРус, 2014. – 248 с. <https://ies.unitech-mo.ru/files/upload/publications/15400/0151d697948309eed1dae12f52a2ff37.pdf>
5. Л. П. Воронкова. Современное состояние и перспективы развития этнографического туризма. – М.: МАКС Пресс, 2011. – 76 с. https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/21616/1/rois_2017_040.pdf
6. Trofimov, E. N. (2013). Development of ethnographic tourism in Russia. Bulletin of the RIAT, 4, 3–12. http://www.rmat.ru/wyswyg/file/about/vestnik/2013/4_2013.pdf
7. Р. Ю. Стыцук. Роль и место этнографического туризма в развитии российских регионов. <https://s.vaael.ru/pdf/2024/6-1/3514.pdf>
8. В. П. Чибилёва, И. Ю. Филимонова. Этнический туризм как фактор устойчивого развития территорий: культурно-познавательный аспект. https://phsreda.com/e-articles/145/Action145-75012_5e7dfbccb89ff.pdf
9. Х. Ф. Очилова. Формирование этнопарков в Республике Узбекистан. <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1186>
10. О. З. Киличова, Ш. Б. Ғаффаров. Актуальность и пути развития этнографического туризма в Узбекистане. <https://moluch.ru/authors/129051/>
11. Melanie Smith, Greg Richards. The Routledge Handbook of Cultural Tourism. https://pure.uvt.nl/ws/portalfiles/portal/93704006/Handbook_of_Cultural_Tourism_Full_Text_Revised.pdf
12. S. Bolnick. The Ethno-tourism Industry. https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/@ed_emp/@emp_ent/@ifp_seed/documents/publication/wcms_117681.pdf
13. C. Notzke. Indigenous Tourism Development in the Arctic. Annals of Tourism Research, 1999, Vol. 26, No. 1, pp. 55–76. <https://scholarworks.alaska.edu/bitstream/handle/11122/66/Alvite.pdf>
14. И. Жобборов. Жаҳон этнологияси асослари: Дарслик. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/12/NamDU-ARM-9879_Жаҳон_этнологияси_асослари.pdf
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentabrdagi 546-son “2022–2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6212915>
16. N. Sobirova. Xorazm baxshiligi va xalfachilik an‘analari: Monografiya. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021. – 50 b.
17. N. A. Raimova. Xorazm dostonlari she‘r tuzilishining o‘ziga xos tabiati: Uslubiy qo‘llanma. – Urganch: Khwarezm Travel nashriyoti, 2025. – 48 b.
18. <https://ich.unesco.org>
19. <https://ich.unesco.org>
20. UzDaily – Prezident: eksport salohiyati 2 mlrd AQSH dollari. (02.05.2025). <https://uzdaily.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>